



UZBEKISTAN'S PRAGMATIC FOREIGN POLICY IN CONNECTING THE CENTRAL AND SOUTH ASIAN REGIONS

Hamidillo Kh. Khudoyorov

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "CASA-1000", BMBY, "Termiz-Mozori-Sharif-Kabul-Peshowar", TAPH, new Silk Road, inter-Afghan talks, "Mozori-Sharif-Kabul-Peshowar"

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: Today, Central Asia is a separate geopolitical region and Uzbekistan is an active subject in it. It was on the initiative of Uzbekistan that the regional dialogue was revived in a new era. The first consultative meeting of the leaders of the Central Asian countries in Astana was also held after the active initiative of the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev. In order to prepare the ground for such a meeting, Shavkat Mirziyoyev held separate meetings with the leaders of all Central Asian countries in the first year of his presidency. Even today, Uzbekistan is at the heart of the Central Asian regional dialogue format and regional initiatives.

MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO MINTAQALARI BOG‘LANISHIDA O‘ZBEKISTONNING PRAGMATIK TASHQI SIYOSATI

Hamidillo X. Xudoyorov

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “CASA-1000”, BMBY, “Termiz-Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar”, TAPH, yangi Ipak Yo‘li, afg‘onlararo muzoakalar, “Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar”

Annotatsiya: Bugungi kunda, Markaziy Osiyo alohida geosiyosiy hudud va unda O‘zbekiston faol sub'ektdir. Aynan O‘zbekiston tashabbusi bilan mintaqaviy muloqot yangi davrda qayta jonlantirildi. Ostonadagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi Maslahat uchrashuvi ham aynan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat

Mirziyoevning faol tashabbusi ortidan o'tkazilgandi. Aynan, mana shunday uchrashuvga zamin tayyorlash uchun ham Shavkat Mirziyoev prezidentligining dastlabki yilidayoq barcha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan alohida uchrashuvlar o'tkazdi. Bugungi kunda ham O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqaviy muloqoti formati va mintaqaviy tashabbuslarning qoq markazida turibdi.

ПРАГМАТИЧНАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА ПО СОЕДИНЕНИЮ РЕГИОНОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ЮЖНОЙ АЗИИ

Хамидилло Х. Худоёров

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «CASA-1000», ВМВУ, «Термез-Мозори-Шариф-Кабул-Пешовар», ТАРН, новый Шелковый путь, межафганские переговоры, «Мозори-Шариф-Кабул-Пешовар»

Аннотация: Сегодня Центральная Азия представляет собой отдельный геополитический регион, и Узбекистан является в нем активным субъектом. Именно по инициативе Узбекистана региональный диалог возродился в новую эпоху. Первая консультативная встреча лидеров стран Центральной Азии в Астане также состоялась после активной инициативы Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева. Чтобы подготовить почву для такой встречи, Шавкат Мирзиёев в первый год своего президентства провел отдельные встречи с лидерами всех стран Центральной Азии. Даже сегодня Узбекистан находится в центре центральноазиатского регионального диалогового формата и региональных инициатив.

KIRISH

2021-yil 6-avgust kuni Turkmanistonda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvida O'zbekiston tomoni o'zining bir qator tashabbuslarini ilgari surdi. Pragmatik tashqi siyosat va do'stona muhitning yaratilishi ortidan O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi so'nggi yillarda sezilarli ravishda yillik 50 foizdan ko'proqqa o'sdi. 2020 yil natijalariga ko'ra global pandemiya sharoitiga qaramay, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi 5 mlrd dollarni tashkil qildi. Umuman, mintaqa davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar sog'lomlashib bormoqda. Shundan kelib chiqib, Turkmanistondagi uchrashuvda Shavkat Mirziyoev Markaziy

Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo'nalishlari to'g'risida bitim qabul qilish taklifini ilgari surdi. Bu taklif O'zbekiston olib borayotgan iqtisodiy diplomatiyaning ham bir tarkibiy qismidir.

ASOSIY QISM

Maqolaning maqsadi O'zbekistonning Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining bog'lashdagi tutgan roli va mintaqalararo hamkorlikni rivojlanishida hamda xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini ochib berishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda, Rasmiy Toshkent tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlarni va ishlarni tahlil qilish va xulosalar berish, huquqiy asoslari, hamkorlikning siyosiy jihatlarini asoslash vazifalar sifatida belgilab olindi.

Maqolada tarixiylik, tizimli-mantiqiy, kontent va qiyosiy usullardan foydalanildi.

Ma'lumki, hozirgi davrda Janubiy Osiyo ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlari orasida aynan O'zbekiston mintaqani Janubiy Osiyo bilan bog'lash yo'lida samarali ishlarni olib bormoqda. Joriy yil 15-16 iyul kunlari O'zbekiston tashabbusi bilan Toshkentda o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiya buning yorqin misolidir. Janubiy Osiyo bandargohlari orqali jahon dengiz yo'llariga chiqish istiqboli O'zbekiston, shuningdek, butun Markaziy Osiyo davlatlarining azaliy orzusini amalga oshirishini ta'minlaydi va bu omil mintaqada davlatlari iqtisodiyotini gurkirab rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Buni chuqur anglagan O'zbekiston bu yo'nalishda ham pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda.

Ushbu loyihani amalga oshirishda Pokiston tomonining ham salmoqli rolini hisobga olgan Toshkent Islomobod bilan doimiy aloqalar olib bormoqda. Birgina, 2021 yil tahlil qilinsa, o'zaro bir nechta yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirilganiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, 2021 yil 10 mart kuni O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov amaliy tashrif bilan Pokistonga bordi. Shuningdek, 15 iyul kuni Pokiston bosh vaziri Imron Xon rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Bundan tashqari, 25 avgust kuni Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mahmud Qurayshiy O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu uchrashuvlarning barchasida ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari bilan birgalikda "Termiz-Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasini amalga oshirish bo'yicha ham muzokaralar olib borildi.

Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lashda samarador va xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. "Termiz-Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l tarmog'i esa mintaqalarni bog'lovchi asosiy transport yo'li loyihasidir. Ushbu loyihaning amalga oshirishi nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy jihatdan foydali, balki Janubiy Osiyo davlatlari ham ushbu tranzit orqali eng qisqa masofa bilan MDH davlatlari yo'nalishi bilan Yevropaga bog'lanishi mumkin. Shuningdek, ushbu temiryo'l Xitoy va u ilgari

surayotgan “Bir Makon, Bir Yo‘l” (One Belt, One Road) loyihasi manfaatlariga ham mos tushadi. Ya‘ni “Termiz-Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar” temir yo‘l loyihasi “Bir Makon Bir Yo‘l” ning janubiy qismi bilan bir yo‘nalishda joylashadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan ochiq, do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlik jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikka qaratilgan siyosiy muzokaralarga barcha afg‘on siyosiy kuchlarini jalb etish hamda Afg‘onistondagi vaziyatga daxldor barcha tashqi kuchlar o‘rtasida geosiyosiy konsensusni ta‘minlash jarayonlarida faol ishtirok etish orqali mintaqa yangi geosiyosiy tendensiyalarida sezilarli rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonning Afg‘oniston yo‘nalishidagi tashqi siyosati uni mintaqadagi o‘rni va ahamiyatini oshiribgina qolmay, Afg‘oniston tinchlik muzokaralariga doir konstruktiv va yangi paradigmalarni ishlab chiqish jarayonlariga muhim turtki berishi mumkin.

O‘zbekiston afg‘onlararo, mintaqaviy va global darajada afg‘on muammosini hal etishga qaratilgan tashqi siyosiy faoliyat olib bormoqda. O‘zbekistonning afg‘on muammosi yuzasidan tutgan tinchlikparvar pozitsiyasi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev o‘zining qator chiqishlarida, xususan, 2017 yilning sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida batafsil bayon qilgan edi. Prezidentimiz jumladan, «Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta‘minlashning muhim sharti bo‘lib qoladi. Aminmizki, Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afg‘onistonliklarning o‘zlari hal qiluvchi o‘rin tutadigan holda, Afg‘oniston hududida va BMT shafeligida o‘tishi lozim. Donishmand afg‘on xalqi o‘z taqdirini o‘zi mustaqil hal qilishga haqlidir» – deb alohida ta‘kidlagan edi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston afg‘on muammosini hal qilish yuzasidan tashabbuslarini nafaqat so‘zda, balki o‘zining amaliy sa‘y-harakatlari orqali ham namoyon etishga harakat qilmoqda. Hozirda mamlakatimiz Afg‘onistonning iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishga, ijtimoiy masalalarni hal qilishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Jumladan, Afg‘oniston tarixida ilk temir yo‘l (Termiz – Hayraton – Mozori Sharif yo‘nalishida) bundan 5-6 yil ilgari o‘zbekistonlik quruvchilar tomonidan bunyod etildi va foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston qo‘shni mamlakatga shifoxonalar, maktablar, avtomobil yo‘llari, ko‘priklar qurishda ham baholi qudrat yordam ko‘rsatmoqda. Bugun Qobul shahri O‘zbekistondan yetkazib berilayotgan elektr energiyasi hisobidan yoritilmoqda. Joriy yildan boshlab, 100 nafarga yaqin afg‘onistonlik yoshlar o‘zbek tilini o‘rganish, temir yo‘l va boshqa mutaxassisliklarni egallash maqsadida Termiz shahrida tahsil olishni boshladi.

Ushbu misollardan ham ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston o‘z e‘tiborini Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratib, bu borada xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlarini birlashtirishga harakatqilmoqda. Afg‘onistonning o‘ziga xosligi shundaki, mamlakat Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘z hududidan o‘tuvchi chegaralarni yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro tushunish va ishonch chegarasiga hamda ko‘p qirrali taraqqiyot hududiga o‘zgartirishi mumkin. Ehtimol, Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘ziga xos chegara Afg‘onistonning markaziy viloyatlari orqali o‘tadi, shu bilan birga mamlakatning shimoliy va shimoli-g‘arbiy viloyatlari geografik jihatdan Markaziy Osiyoga, janubiy va sharqiy viloyatlari esa Janubiy Osiyoga yaqinroq. Afg‘oniston Islom Respublikasining (AIR) deyarli butun markaziy qismi bo‘ylab cho‘zilgan Hindikush tog‘ tizimi Shimoliy Afg‘onistonni mamlakatning qolgan qismidan ajratib turadi.

Muhim ichki muammolar bilan bir qatorda, Afg‘onistondagi beqarorlik omili Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari ichidagi va mintaqalararo o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ammo, ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, Afg‘oniston masalasida har ikki mintaqa davlatlari tomonidan haddan tashqari sek'yuritizasiyalangan (faqat xavfsizlik masalalariga yo‘naltirilgan) tashqi siyosat yo‘nalishini olib borish Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo davlatlari manfaatlarini uchun konstruktiv natijalarni bera olmaydi.

Afg‘oniston muammosini desek'yuritizasiya qilish (faqat xavfsizlik masalalari bilan bog‘lashdan chetlashish), AIRni kesib o‘tadigan va Markaziy Osiyo hamda Janubiy Osiyo mintaqalarini bog‘laydigan muhim infratuzilma loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish Kaspiy dengizidan Hind okeanigacha bo‘lgan keng mintaqani siyosiy, madaniy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasiga turtki bo‘lishi mumkin.

Markaziy va Janubiy Osiyoda barqaror rivojlanish istiqbollari qo‘shni Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Barqaror, kutilmaydigan harakatlarni amalga oshirmaydigan va jadal rivojlanayotgan Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi muhim ko‘prik, shuningdek zamonaviy sharoitlarda tarixiy Ipak Yo‘lini tiklashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston mojarosini hal qilishdagi imkoniyatlarini real baholash, ushbu mamlakatda tinchlik o‘rnatish va keng qamrovli mintaqalararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimdir.

Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni cheklaydigan bir qator jiddiy muammolarning mavjudligi bu ikki mintaqani integratsiya qilish va Afg‘onistonda murosali tinchlikni o‘rnatish maqsadida nostandart yechimlarni ishlab chiqish uchun mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tish zarurligini ko‘rsatib turibdi.

Afg‘onistonning ajralib qolgan viloyatlarini birlashtiradigan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning

kuchayishiga olib keladi. Mintaqalarni bog'laydigan eng qisqa yo'l sifatida Afg'onistonni kesib o'tadigan avtomobil' va temir yo'llarning qurilishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning o'sishiga, balki siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishiga ham turtki berishi mumkin.

Boshqa tomondan, yirik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish ish o'rinlari yaratilishi, davlat byudjeti daromadlarining ko'payishi hamda avtomobil' va temir yo'llarning samarali ishlashini ta'minlash uchun xizmat zanjirlarining shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan modellarini hisobga olgan holda, Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarni yangi savdo bozorlariga sotishga ehtiyoji katta. O'tgan asrda hozirgi postsovet hududi Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy bozor bo'lib xizmat qildi. Ijobiy natijalar bilan bir qatorda eksport yo'nalishlarining bunday bir tomonlama rivojlanishi mintaqaning eng maqbul savdo bozorlarini tanlash bo'yicha imkoniyatlarini qisqartiradi.

Bundan tashqari, ushbu hududdagi mamlakatlar aholisi 1989 yildan 2019 yilgacha 285,7 dan 297,8 million kishiga, jami 4,2 foizga o'sdi. Shu bilan birga, bu o'sishga asosiy hissani Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlatlari qo'shishgan bo'lsa, qolgan postsovet davlatlarida aholi soni doimiy ravishda kamayib bormoqda, bu 2050 yilga kelib 284 milliongacha kamayishi va Nigeriya kabi mamlakat aholisidan kamroq bo'lishi mumkin.

Janubiy Osiyoda aholi soni 1,95 milliard kishini tashkil qilishi, iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlari kuzatilayotganligi va dunyoning bu qismida Hindiston va Pokiston kabi yetakchi mintaqaviy kuchlarning mavjudligi mintaqani Markaziy Osiyo uchun jozibador hamkorga aylantiradi.

“Mozori Sharif — Qobul — Peshovar” temir yo'l loyihasi to'liq amalga oshirilishi bilan Pokistondan O'zbekistonga yuk tashish uchun 35 kun emas, 3–5 kun sarflanishi kutilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, konteynerni Toshkentdan Karachiga yetkazish narxi taxminan 1400–1600 dollarga teng bo'ladi, hozir amaldagi «Toshkent — Bandar Abbos» yo'nalishida bu xarajat 2600–3000 dollarni tashkil qilmoqda.

Mozori Sharifdan Peshovargacha bo'lgan temir yo'l qurilishi doirasida 264 ta ko'prik, 7 ta tunnel va 641 ta suv o'tkazgichli tizimli infratuzilma yaratiladi, bu Afg'oniston va Pokistondagi kesib o'tuvchi hududlarining rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, anchadan buyon Markaziy Osiyodan Janubiy Osiyoga “CASA-1000” elektr uzatish liniyalarini hamda TAPH (Turmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston) transafg'on gaz quvurlarini qurish loyihalari bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda. TAPH loyihasi qo'shni mintaqalar orasidagi hamkorlikni yaxshilashi va qit'aning turli qismlarining iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirib, Yevroosiyoning Shimoli va Janubi o'rtasidagi to'liq bog'liqlikni yaratishi mumkin.

Afg'onlararo darajada O'zbekiston nafaqat Afg'oniston hukumati, balki «Tolibon» harakati va boshqa afg'on etnosiyosiy vakillari bilan teng aloqalarni yo'lga qo'ydi. Xususan, Afg'oniston va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va izchil rivojlantirish maqsadida Shavkat Mirziyoev topshirig'iga binoan, 2017 yil 23-24 yanvar kunlari Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi O'zbekiston delegasiyasi rasmiy tashrif bilan Afg'onistonda bo'ldi. Aynan ushbu tashrif o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish jarayonida dastlabki qadamga aylandi. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida oliy darajada uchrashuvlar ham o'tkazilib, bu ayniqsa, Afg'oniston sobiq Prezidenti Ashraf G'aning 2017 yil 4-6 dekabr sanalarida O'zbekistonga uyushtirgan rasmiy tashrifi davomida o'z ifodasini topdi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston va Afg'oniston Prezidentlarining Qo'shma bayonoti va turli sohalarda hamkorlikni mustahkamlashga doir 20 dan ortiq hujjat imzolandi. Shuningdek, 2019 yil 31 mart sanasida O'zbekiston Milliy xavfsizlik kengashi raisi Viktor Mahmudov va Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Afg'onistonga tashrif buyurib, Prezident Ashraf G'ani bilan o'tkazilgan uchrashuvda O'zbekiston tomoni Afg'oniston tinchlik jarayonining har qanday shakliga mezbonlik qilishga tayyorligini ma'lum qildi.

O'zbekiston Afg'oniston hukumati va muxolifatdagi asosiy siyosiy kuch sifatida e'tirof etilgan «Tolibon» harakati o'rtasida oldindan shart qo'ymasdan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarni o'tkazish zarurligini qo'llab-quvvatlab keldi, O'z navbatida, afg'onistonliklarning roziligi asosida bunday tinchlik muzokaralari uchun istalgan vaqtda muloqot maydoni bo'lishga tayyorligini ham ma'lum qildi. Eng asosiysi, O'zbekiston «Tolibon» harakatining siyosiy mahkamasi vakillari bilan tegishli aloqalar o'rnatib, ularni afg'onlararo tinchlik muzokaralarida ishtirok etishga da'vat qilib keldi. Jumladan, 2018 yil 7-10- avgust kunlari harakatning Doha shahridagi joylashgan siyosiy idorasi sobiq rahbari Sher Muhammad Abbas Stanekzay boshchiligidagi delegasiya O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. E'tiborli jihati shundaki, muzokaralar masalasida «Tolibon» harakati Afg'onistonga chegaradosh hududlar orasidan o'z mintaqaviy ishtirokini aynan Toshkentdan boshlagani ham O'zbekistonning Afg'oniston tinchlik jarayonlaridagi mintaqaviy nufuzini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, Afg'onistonda Tolibon hokimiyatining o'rnatilishi (2021 yil 15 avgust) Afg'oniston masalasida O'zbekiston diplomatiyasining nechog'lik chuqur o'ylangani va strategik tanlovga asoslangan ekanligini ko'rsatib berdi.

Afg'onistondagi voqealar rivoji xususida siyosatshunos olim Suhrob Bo'ronov quyidagi fikrlarni ilgari surgan: "Aslida, Afg'oniston bo'yicha ertaga nima bo'lishini ham bashorat qilish juda mushkul. Lekin, voqealar rivoji va tahlil orqali taxmin qilinsa bo'ladiki, toliblar katta ehtimol bilan hokimiyatga yaqin kelishi mumkin. Faqat bu jarayon 90-yillar o'rtalaridagi holat singari bo'lmasa kerak. Ular hokimiyatni to'liq egallaydi, deyishdan yiroqman. Fikri ojizimcha, bu yerda uchta ssenariy mavjud:

1. Konstruktiv. Rasmiy Kobul va “Tolibon” o‘rtasida murosa olib borilib, koalision hukumat tuzilishi;

2. Destruktiv. Mamlakatda fuqarolar urushi qayta faollashuvi;

3. Toliblarning hokimiyatni to‘liq qo‘lga kiritishi.

Afsuski, ikkinchi ssenariyning amalga oshishi ehtimoli yuqori. Chunki, hozir Afg‘oniston shimolida ham Kobul hukumatidan bo‘lak turli etnik guruhlar “Tolibon”ga qarshi jiddiy kurash olib bormoqda. Bu esa etnosiyosiy vaziyatni yanada chigallashtirib, Afg‘oniston parchalanib ketishiga, afg‘onlararo muzokaralar esa yillab cho‘zilishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tashqi siyosatida Afg‘oniston omili mintaqaviy miqyosda konsensusga erishishni taqozo etadi, Rasmiy Toshkent Afg‘oniston muammosini hal etishda katta ta'sir ko‘rsatuvchi mintaqaning ko‘zga ko‘ringan aktorlari – Pokiston, Hindiston, Eron, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Turkiya singari kuch markazlari, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan turli darajalarda muzokaralar olib bordi va jarayonlar davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ш.Мирзиёевнинг Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг учинчи Маслаҳат учрашувидаги нутқи

2. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори, PhD Сухроб Бўроновнинг www.uzanalytics.com сайтига интервьюси

3. Муҳаммадсидиқов М.М. Замоनावий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари. Ўқув кўлланма, - Тошкент.:ТДШИ, 2013.- 136 б.; Муминова.Н. Халқаро ташкилотлар. - Тошкент: ЖДИУ, 2014. – 64 б.

4. Юлдашева Г.Новые внешнеполитические ориентиры Турции и государства Центральной Азии. Москва. 2008. - С. 51-59

5. Алимов.М.А. Глобаллашув ва иқтисодий интеграция жараёнлари. Тошкент: ТДШИ. 2016. – 235 б.

6. Экспорт образовательных услуг в системе высшего образования Российской Федерации. Министерство образования и науки Российской Федерации. Режим доступа: <http://www.russia.edu.ru/information/analit/1300/>

7. Delegation of European Union to Kazakhstan. Overview. Mode of access: http://eeas.europa.eu/delegations/kazakhstan/projects/overview/index_en.htm

8. Non-Governmental Organisations of Kazakhstan: Past, Present, Future. Almaty: UNDP, 2002. - P. 3.